



IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA MUSIQA TERAPIYADAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Syomkina Adiba Minggirovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227950>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

musiqa, imkoniyati cheklangan bolalar, biopsixologik rivojlanish, aqliy rivojlanish, musiqa terapiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada musiqaning imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashdagi ahamiyati o'rganilgan va quyidagi tahlillarga asoslanilgan: a) musiqa va imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasidagi bog'liqlik; b) musiqiy terepiyaning maqsadi; c) imkoniyati cheklangan bolalarning biopsixologik va aqliy rivojlanishida musiqaning ta'siri; d) imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda musiqa va musiqiy asboblar chalishni o'rganishning zaruriyati va boshqalar.

Musiqa inson ruhiyatidagi eng nozik va samiyimiy tuyg'ularni oddiy 7 nota bilan aks ettira oladigan san'at turidir. Butun dunyoda faqat shu 7 ta nota ishlatiladi ammo bir-birini takrorlamas go'zal kuylar yaralaveradi. Musiqaning bu sehrli olamiga oshno bo'lgan qalblar doimo ezgulik suvi ila sug'orilgan bo'ladi. Ma'naviyatimizga mos bo'lgan milliy, mumtoz kuylarimiz, maqom yoki maqom yo'lidagi kuy qo'shiqlarimizni, jahon klassik kompozitorlari asarlarini tinglash orqali yoshlarni samiyimiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin. Bunday musiqalarni tinglagan va shunday musiqalar butun umri davomida hamroh bo'lgan insonlar ma'nan yetuk insonlar bo'lib tarbiya topadilar.

Musiqaning inson organizmiga ta'siri va uning davolovchi xususiyatlarini qadimgi Hindiston, Xitoy hamda Misrda miloddan avvalgi 500-yillar oralig'ida o'rganila boshlagan. Qadimgi Yunonistonda musiqa bilan davolash haqidagi ilk tushunchalarni Pifagor, Platon va Aristotel ta'limotlarida

uchratishimiz mumkin. Musiqaning inson aqliy faoliyati va jismoniy holatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikrlarni birinchilardan bo'lib yunon olimi va faylasufi Pifagor o'z asarlarida aytib o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra "agar kimdir go'zal ritm va qo'shiqlarni tinglasa, bunday kishi musiqa ta'limini ohang va ritmlardan boshlaydi, uning axloqi va ehtirolari davolanadi va dastlabki uyg'unlik paydo bo'ladi, ruhiyati mustahkamlashadi". Qadimgi yunonlar musiqani tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlovchi kuch sifatida baholaganlar va musiqa inson ruhini tarbiyalaydi degan ilk farazlar aynan Qadimgi yunonlarda mavjud edi. Bu borada Pifagordan keyin Platon va Aristotel musiqaning to'rt kuchini aniqlab beradi.

1. Hissiyotlarni harakatga keltirish
2. Quvonch berish
3. Axloqiy fazilatlariga moyillik
4. Intelektual rivojlantirish.

Musiqa terapiya imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishdagi eng



samarali usullardan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Musiqa terepiya turli nuqsonlarga ega bolalarni o'qitishda juda ham qo'l keladi, boisi bu kabi bolalarning har biri alohida yondashuvni talab qiladi. Musiqa qadimdan davolashda keng qo'llanilgan metod sanaladi. Uning salbiy hissiyotlarni yo'qotishi, tolerantlikni oshirishi va ichki hotirjamlikni oshirishi amalda isbotlangan. Musiqa terapiyasi aqliy va biopsixologik muammolari mavjud bolalar bilan ishlashda ham juda katta yordam beradi.

Taqdidotimizning maqsadi musiqaning imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim berish jarayonidagi samarali jihatlarini asoslab berish hisoblanadi. Musiqa allaqachon inklyusiv sinflarda qo'llaniluvchi muhim pedagogik qurollardan biriga aylanib ulgirdi. Bog'cha yoshidan universitet talabalariga qadar imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish ta'lim dasturida musiqa alohida tutadi. Musiqaning boshqa fanlarga uyg'unlashgan holda o'qitib borilishi o'quvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Kollet(1992)ning o'z tadqiqotlarida ta'kidlashicha, musiqa imkoniyati cheklangan bolalarning fikrlash, muammolarni yechishga urinish, tanqidiy va tahliliy baholash ko'nikmalarini oshirish hamda yaratuvchanlik qobiliyatlarini o'stiradi.

Bugungi kunga qadar aqliy zaif bolalarni o'qitishda musiqaning o'rnini belgilovchi bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Straum autism kasalligi mavjud bo'lgan bolalarga musiqiy ta'limni o'qitish ijtimoiy fanlar va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishini amalda isbotlaydi. Autizmli bolalar o'zlarining monoton nutqlarini ritmga, urg'uga, jumlaning oqimiga va burilishlariga mos keladigan

qo'shiqlar kuylash orqali bartaraf etadilar. Muallif, shuningdek, musiqadan bu kabi bolalarning kognitiv, o'rganish, idrok etish ko'nikmalarini oshirish hamda ijtimoiy va hissiy rivojlanishini rag'batlantirish vositasi sifatida foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi o'qituvchilar o'quvchilarning kayfiyatini ijobiy tomonga o'zgartirish va hissiy muammolarini baholash uchun musiqadan foydalanadilar. Musiqa insonga o'z his-tuyg'ularini kashf etishlariga imkon beradi. Zamonaviy pedegoglar musiqaga barcha bolalar hayotining ajralmas qismi sifatida qaraydilar.

Bolalar musiqa tinglashni, qo'shiq aytishni yaxshi ko'radilar. Musiqa stressni yengish qobiliyatini samarali oshirishi mumkin. Giles musiqani musiqa darslarida ham, oddiy ta'lim sinflarida ham keng foydalanishni taklif qilgan. U adabiyotni musiqiy tarkib bilan birlashtirish kitoblarni jonlantirishga yordam berishini va musiqa sinflari bolalarning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini va ularni turli tadbirlarda ishtirok etishga undashini aniqlagan (Giles, 1991).

Musiqa o'rganishda nuqsoni bo'lgan bola miyasining zaif tomonlarini mustahkamlaydi. Musiqa miyaning eshitish, vizual/fazoviy va motor kortekslarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Bular nutq va til, o'qish, diqqatni jamlash, diqqat va konsentratsiya masalalari bilan bog'liq sohalardir. Tadqiqotlar shuni isbotladiki, o'rganishda nuqsoni bo'lgan bolalar cholg'u asboblarni chalishni o'rgansa, diqqat, konsentratsiya, impuls nazorati, o'zini o'zi qadrlash, motivatsiya va xotira kabi xususiyatlari yaxshilanadi. Fon shovqini ta'siri ostida diqqatni jamlashda



qiyalayotgan bolalarga musiqa darslari ayniqsa yordam beradi.

Quyida imkoniyati cheklangan bolalarga kasallikni yemgib o'tishlarida musiqa ta'sirini yoritmoqchimiz:

1. Bolaning muntazam musiqa darslariga qatnashishi. Bola qanchalik erta yoshdan mashg'ulotlarga qatnashish boshlansa, natija shu qadar samarali bo'ladi.

2. Musiqaga raqs tushish. DEHB (diqqat yetishmasligi giperaktivligi buzilishi) yoki o'rganishda nuqsoni bo'lgan bola uchun harakat zarur. Harakat o'rganish, fikrlash va diqqatni jamlashning juda muhim qismidir. Harakatni mashq qilishning eng yaxshi usuli - bu raqs. Bolaning turli ritmlarga o'tishi bilan uning jismoniy faolligi va diqqatni jamlash qobiliyati keskin yaxshilanadi.

3. Musiqiy kitoblar o'qish. Imkoniyati cheklangan bolalarga kitob o'qib berish - barcha ota-onalar shug'ullanishi kerak bo'lgan faoliyatdir. Bolaning musiqiy kitob o'qishi diqqatni jamlash, so'z boyligi, nutq va tilni rivojlantirishga yordam beradi.

4. Musiqiy asbob chalishni o'rganish. Bu bolaning salomatligi uchun foydali bo'lishligi bilan bir qatorda, musiqiy asbob bilan do'st tutinish va mashg'ulotlarda yangi do'stlar orttirish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda musiqa terapiyasi hozirgi kunda aksar rivojlangan davlatlarda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda, ayniqsa asab tizimi, yurak qon tizimi kasalliklari va boshqa ko'plab kasalliklarni davolashda muhim rol o'ynaydi. Musiqa tebranishlari inson tanasidan, shuningdek, uning alohida tizimlari va hujayralaridan chiqadigan tebranishlar bilan rezonanslashadi. Bu esa tanadagi kasalliklarni o'z-o'zidan davolash imkonini beradi. Musiqa inson hayotida ham psixik ham fiziologik ta'siri bilan ahamiyatli bo'lganligi bois, musiqa terapevtlar yordamida davolangan bemorlar nafaqat kasalliklarini balki ruhiy og'riqlarini ham yo'qotishga erishadilar.

References:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T.2000
2. Schoen-Nazzaro, M.B - Plato and aristotle on the Ends of Music. Laval theologique et philosophique. 1978
3. Halimov, M. Z., Norkobilova, Z. B., & Hayitov, I. Y. (2016). BIOLOGICAL AND ECOLOGICAL FEATURES OF THE APPLE TREE IN CONDITIONS OF SOUTH UZBEKISTAN. In Наука и инновации в современном мире (pp. 120-121).
4. Xusanboevna, S. A. (2021). Linguopragmatic Properties of Language. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 1(4), 10-12.
5. Xusanboyevna, A. S. (2021, April). PRAGMATICS AND LINGVOPRAGMATIC FEATURES OF SPEECH. In Archive of Conferences (Vol. 23, No. 1, pp. 181-183).
6. qizi Turaboyeva, S. Z., & Utambetova, A. K. (2022, May). LINGUOCULTURAL PROBLEMS IN THE UZBEK LANGUAGE. In INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING (Vol. 1, No. 7, pp. 233-235).
7. Turaboyeva, S. Z. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA" DO 'ST" KONSEPTINING SOTSIAL O 'ZIGA XOSLIGI.
8. Turaboyeva, S. (2022). LINGUOCULTURAL PROBLEMS IN THE UZBEK LANGUAGE. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).



9. Mampurkhanovna, D. B. (2022). THE CONCEPT OF “LOVE” AS AN IMPORTANT ELEMENT OF THE EMOTIONAL WORLD LANDSCAPE. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(5), 95-98.
10. Yuldasheva, D. K. (2019). COMMUNICATIVE APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (11), 50-52.